

**Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish faoliyatining ahamiyati**

*Huquqbuzarliklr Profilaktikasi Faoliyati kafedrası*

**ALIBOYEV DOSTON SHAVKAT O`GLI**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklr Profilaktikasi Faoliyati yo'nalishi bo'yicha talim olayotgan 309-gurux kursanti*

**ANNOTATSIYA:** *Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganish, tahlil etish faoliyati nomli bitiruv malakaviy ishi ma'muriy hududning kriminogen vaziyatiga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy va amaliy o'rganishga bag'ishlangan ish hisoblanadi. Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi ijtimoiy va kriminogen vaziyatni o'rganish va baholash bo'yicha faoliyatiga oid kriminologik huquqiy ta'limotlar, fikrlar qarashlar va ularni takomillashtirishni taqoza etuvchi omillar mantiqiy ketma-ketliklarda hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy tahlil qilinadi, tavsiflaydi hamda uni nazariy ta minlash, takomillashtish borasida ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar beradi.*

**SHartli qisqartmalar:**

IIO – Ichki ishlar organlari;

JIEM – Jazoni ijro etish muassasasi;

HPB – Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi;

MXTM – Maxalla huquq tartibot maskani;

PI – Profilaktika inspektori;

TSH – Tuman, shahar;

NQ – navbatchilik qismi;

Q X – Quriqlash xizmati

PPX – Patrul- post xizmati;

MJTK – Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks;

HMQO – Huquqni muhofaza qiluvchi organlar;

FO‘O‘BO- Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

NNT – Nodavlat notijorat tashkilotlari; OAV – Ammaviy axborot vositalari.

Profilaktika inspektorining ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish faoliyatining ahamiyati O'zbekistonda davlat xalq irodasinin ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaat larini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan organlar tomonidangina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi.

Davlatning ushbu vazifalarni bajarishda profilaktika inspektorlarininng faoliyati muhim ahamiyatga ega, xususan, jamoat taribini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa uning ustuvor yo'nalishi qilib belgilangan huquqbuzarliklar profilaktikasi eng katta hajmdagi va ko'p qirrali faoliyatni amalga oshiruvchi tizim hisoblanadi.

Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funksiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududdagi kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi.

Demokratik jamiyatni boshqa shakldagi, shuningdek, totalitar, ya'ni terrorga asoslangan jamiyatdan ustunligi jinoyatchilikka qarshi kurashdagi va uni oldini olishdagi faoliyatini tashkil etishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Demokratik jamiyatda jinoyatlarning oldini olish faoliyati jinoiyhuquqiy qatag'on orqali emas, balki jinoyatlarning sabab va sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini qo'llash, uni kuchsizlantirish usullari orqali amalga oshiriladi, ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasi chuqur ilmiy asoslangan holda tahlil qilishning, jamiyatda jinoyatchilikni oziqlantirib turuvchi ijtimoiy xayotning barcha soxalaridagi xodisa, voqea va jarayonlarni bilishni talab qiladi. Xususan, kriminogen vaziyatni chuqur o'rganish, uni tahlil qilish va kelgusidagi profilaktika ishlarni ulardan kelib chiqqan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika inspektorining sohaviy xizmat xodimlari, davlat organ lir va jamoat birlashmalari bilan hamkorligi kriminogen vaziyatni o'rganish va chuqur tahlil qilish kelgusidagi faoliyatni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kriminogen vazitga ta'sir qiluvchi psixologik omillar, ularni profilaktika inspektori faoliyatida hisobga olinishi muhim hisoblanadi.

Profilaktika inspektoriga masofadan turib murojaat yuborish va uni ko'rib chiqish jarayonini ko'zatib borish, aholi bilan o'zaro tezkor muloqotni yo'lga qo'yish, profilaktika inspektorlari va sektor rahbarlari faoliyatiga baho berish imkonini beruvchi "Smart mahalla" axborot dasturi ishlab chiqildi, jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklar statistikasini yuritish, jinoyatchilik holatini, shu jumladan hududlar va huquqbuzarliklar turlari kesimida statistik tahlilni amalga oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etishda foydalanish uchun tezkor-ma'lumotlar hisoblari, ichki ishlar organlarining arxiv-ma'lumotlari va maxsus fondlarini yuritish, shuningdek, shaxslarning qidiruvini e'lon qilish jarayonini ta'minlash vazifalari belgilab berildi.

Profilaktika inspektorlarining malakasi va professional mahoratini oshirish g'oyat muhim vazifalardan biridir. Yuksak professionalizm, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo'l topa bilish, oila va maktab o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish har bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatlari bo'lmog'i darkor. Ana shundagina huquqbuzarliklarning oldini olish, sog'lom ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashga ko'maklashish, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrashga qaratgan taqdirdagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

Kriminogen vaziyatlar shaxsni turli salbiy-ijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, undagi muayyan jinoiy tajovo'zning motivini shakllantiradi, uning xarakteri, maqsadini belgilaydi va jinoyat sodir etishda sub'ektiv omilning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo'lishiga

Jamiyatda, uning ayrim hududlari va sohalarida kriminogen vaziyatning murakkabligi quyidagi Kriminogen vaziyatlar shaxsni turli salbiyijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, undagi muayyan jinoiy tajovo'zning motivini

shakllantiradi, uning xarakteri, maqsadini belgilaydi va jinoyat sodir etishda sub'ektiv omilning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo'lishiga ko'maklashuvchi sharoit rolini bajaradi. YA'na shuni alohida ta'kidlash kerakki, kriminogen vaziyatlar turli xil qarashlarga ega bo'lgan shaxslarga turlicha ta'sir qiladi. YA'ni, jamiyatga zid qarashga ega bo'lgan shaxslarga jinoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yordamlashadi, har tomonlama barkamol, ijobiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar esa bunday vaziyatlarda umuminsoniy va huquqiy normalarga muvofiq harakat qiladilar.

Kriminogen vaziyat — bu ma'zmuni bo'yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga ijobiy ta'sir qiluvchi jinoiy natijaga erishish uchun kulay hisoblangan, ya'ni jinoyat etishga ko'maklashuvchi vaziyatdir. SHuni qayd etish lizimki, har qanday kriminogen vaziyat o'z xolicha mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga kelmaydi.

Kriminogen aniq hayotiy vaziyatlar kriminologiya fani asosida quyidagicha tavsiflanadi:

Harakat qilish vaqti bo'yicha, – o'zoq muddatli (masalan, qurg'oqchilik natijasida hosilning bo'lmasligi yoki ayrim iste'mol buyumlarining taqchilligi) va qisqa muddatli (do'konda navbatda turganda kelib chiqqan nizo) vaziyatlarga bo'linadi.

Harakat qilish maydoni bo'yicha – esa kriminogen vaziyatlarni aniq bir shaxsga yoki bir guruh shaxslarga taalluqli (oilaviy janjalkash, biror shaxsning vafoti, mulkning o'g'irlanishi) va umumiy, ya'ni barchaga taalluqli (tabiiy ofat, jamoadagi nosog'lom vaziyat, davlatdagi siyosiy barqarorlikning yo'qligi, milliy nizolar va boshqalar) bo'lgan kriminogen vaziyatlarga ajratish mumkin.

Kelib chiqish manbai bo'yicha – tabiiy kuchlar ta'sirida kelib chiqadigan (noqulay ob-havo sharoiti kishilar o'limiga, mulklarining yaroqsizlanishiga olib kelgan hodisaning yuz berishi) va odamlar tomonidan vujudga keltirilgan (spirtli ichimliklar ichib bezorilik sodir etilishi yoki boshqa turli axloqqa zid harakatlar) kriminogen vaziyatlarga bo'linadi.

Jinoyat sodir etish vaqtidagi kriminogen vaziyat bu shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisoblanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatlariga ega bo'lgan shaxsdagi jinoyat sodir etish moyilligini kriminogen vaziyat ta'sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi. Aniq hayotiy vaziyatning shaxs muayyn jinoyat sodir etishiga ta'sirini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin---

- g'ayri ijtimoiy yo'nalishiga ega bo'lgan shaxs;
- aniq hayotiy vaziyat;
- jinoiy hatti-harakat.

Kriminogen vaziyatni yuridik adabiyotlarda kriminogen turlarining xarakteri quyidagicha bilgilarga qarab tasiflanadi:

— shaxsning shakillaishi izchil huquqa xilof va noahloqiy muhit doirasida yuz bergan ( masalan, oilada, o'rtoqlari ta'sirida)

— ijtimoiy javobgarlikni xis qilmaslik o'zining yomon ahloqiga nisbatan atrofdagilarning salbiy munosabatiga befaq munasabatda bo'lishi.

— jinoyat sodir qilish vaqtida xulqining izchilligi va tashqi bahonaprsiz jinoyat qiladiganlar. Bunday turdagilarga asosan retsivistlar kiradilar.

Vaziyatli – kriminogen tipidagi jinoyatchilar ko'proq uchraydi. Ular asosan qarama-qarshiliklar mavjud bo'lgan mikromuhida shakillanadilar. Ana shunday shaxslar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar ma'lum darajada shaxsning o'ziga xos sifatlari va nobop hayotiy vaziyatning birgalikdagi ta'siri natijasida sodir qilinishi mumkin. Bunday shaxslarning xulqiga axloq normalarini muttasil ravishda buzish, jinoiy harakterga ega bo'lmagan huquqbuzarliklarni sodir qilishga xos bo'lib, ulardagi shu xususiyatlar jinoyat sodir qilish uchun sabab bo'ladi.

Vaziyat tufayli jinoyat sodir qiladigan shaxslar asosan shaxsiy, oilaviy yoki xizmat sharoiti tufayli jinoyat sodir qilishga qul uradigan kishilardir. Bunda jinoyat asosan vaziyat ta'siridagina sodir qiladi. Ular asosan birinchi marta jinoyat sodir qilgan shaxslardir.

Yuridik adabiyotlarda tasodifan jinoyat sodir qilib qo'yadigan shaxslar ham aytiladi, lekin shuni aytish kerakki, tasodifan jinoyat sodir qilib qo'yadigan kishilarni kriminogen tipidagi shaxslar guruhiga kiritish mumkin emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki - jinoyatchilik tarkibida borgan sari uning o'ta xavfli va murakkab yangi turlarning paydo bo'layotgani, jinoiy yo'lga keng doiradagi shaxslarning, ayniqsa voyaga etmaganlar va yoshlarning, shuningdek hayotda o'z o'rnini topa olmayotgan yoki alamzada shaxslarning muayyan jalb etilayotgani ular jamiyatga va uning a'zolariga etkazayotgan moddiy va ma'naviy zarar miqdori hamda ko'laming kengayib borayotgani, davlat hokimiyati organlari va demokratik institutlar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgani, terrorchilik ruxidagi va ekstrimestik g'oyalarga asoslangan jinoiy tuzilmalar faoliyatini moliyalashtirayotgan, ularga qarshi kurash uchun katta mablag' sarflanishi, kuch vositalar jalb qilinishi, hatto yo'qotishlarga yo'l qo'yilayotgani uning haqiqiy ijtimoiy xavfini ko'rsatadi

**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

Rahbariy adabiyotlar

Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., 2011.

Karimov I.A. O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T., 1993. – B. 19–11.

Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., 1992.

Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –

Karimov. I O'zbekiston milliy istiqlol iqtisod siyosat mafkura. T - O'zbekiston 1996 y B-1

Prezident SH.Mirziyoev. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom vashaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi lozim. T-2017 y

Prezident SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. Toshkent -2018 y

Prezident SH.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davot ettirib yuksak marralarga erishamiz. T -2018 y

Qonun va normativ hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T-2023 y.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi .

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarlik lar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni. T-2022y

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 apreldagi "Jazoni ijro etish muassasalaridan bo'shatilgan shaxslarga nisbatan II Oning ma'muriy nazorati to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jamoat Xavfsizligi Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son.

O'zbekiston Respublikasining IIVning 2017 yil 12 iyuldagi 151 sonli buyrug'i.T-2017 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2017yil 14-martdagi „Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2833-sonli prezident qarori.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Haraktlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947sonli farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi PF-6196-son "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish soxasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatdan yangi bosqichga ko'tarish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.

.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning "Ichki ishlar organlarining Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish soxasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2021 yil 2 apreldagi PQ-5050-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla instutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 5938-sonli farmoni